

Hud payg'ambar



15:00 / 02.01.2021 6103

Alloh Od qavmiga bir elchi yuborishni xohladi. Albatta, Alloh bandalariga kuforni ravo ko'rmaydi va yerda buzuqlikni yoqtirmaydi. Od qavmi, yeb-ichish, bekorchilik, o'yin-kulgu va uylar qurishdan boshqa narsaga aqlarini ishlatmasdilar. Ularning aqlari, dinga ishlatmaganlari uchun buzilib ketdi. Od qavmi dunyoda aqlli, dinda esa beaql va nodon edilar. Toshlarga ibodat qilib aql yuritmasdilar. Alloh ularga, to'g'ri yo'lga boshlovchi elchini yuborishni xohladi. Alloh bu elchini o'zlaridan bo'lishini, uni tanib, so'zini tushunishlarini xohladi. O'sha elchi Hud edi, od qavmining sharaflilari uylarida tug'ildi, aqlli va salohiyatli bo'lib voyaga yetdi.

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad